

Chet Til Darslarida O`Rganuvchilarining O`Qib Tushunish Ko`Nikmalarini Rivojlantirish

Ziyodbek Abdullaev

Farg`ona davlat universiteti katta o`qituvchisi

Mubinabonu O'Imasova

Farg`ona davlat universiteti, Lingvistika (nemis tili) 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada chet tili darslarida o`qib tushunish ko`nikmasi va uning fandagi ilmiy izohi, shuningdek, chet tilda o`qish uchun adabiyotlar/matnlar tanlash va tanlangan material/matnga bog`liq omillar yoritiladi

KALIT SO`ZLAR: o`qish, chet tili, kommunikativ, matn, qiziqtirish, tushunish, dunyoqarash.

O`qib tushunish chet til o`rganishning 4 muhim aspektlaridan biri bo`lib, u chet til o`rganishning maqsadi emas, balki eshitib tushunish bilan birga anglash/idrok etish orqali o`zlashtiriladigan ko`nikma hisoblanadi.

Nemis tilshunosi Elers o`qishga “so`zlarni qo`shib ma`no chiqara olish va tushunish jarayoni” (2) deb izoh beradi. Wilms (4) fikricha esa o`quvchilarining ona tillarida o`qib tushunish ko`nikmalari qanchalik rivojlangan bo`lsa, bu narsa chet tilidagi matnlarni o`qib tushunishda ham shunchalik ijobjiy ahamiyatga ega bo`ladi yoki aksincha. Yurtimizdagи ayrim ta`lim muassalaridagi chet til darslariga e`tibor qaratadigan bo`lsak, chet til darslarida o`qish til o`rganishning yagona yo`li hisoblanadi va boshqa til ko`nikmalari e`tibordan chetda qoladi, ya`ni chet til darslarida faqat matnlar o`qiladi, tarjima qilinadi. Muhtaram Prezidentimizning 2012 yil 10 dekabriddagi “**Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida**” qarorlarida ham “...*chet tillarni o`rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko`rsatmoqdaki, ta`lim standartlari, o`quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg`or axborot va media-tehnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to`liq javob bermayapti. Ta`lim, asosan, an`anaviy uslublarda olib borilmoqda.*” (1) deb ta`kidlangan. Yuqoridagi kabi holatlar axborot texnologiyalar asri bo`lmish XXI asrda ham davom etayotganligi achinarlidir.

Fanda o`qishning uch funktsiyasi mavjud:

- Ma`lumot olish uchun o`qish
- Psixik-emotional zavq olsih uchun/xordiq chiqarish uchun o`qish
- Til o`rganish uchun o`qish

Maktab o`quvchilari va talabalar bilan so`rovnoma dan shu ma`lum bo`ldiki, ularning ma`lum qismi nemis tilidagi matnlarni majbur bo`lganliklari uchun yoki talab qilinganda o`qishadilar. Ular chet tilidagi matnlarni o`qib tushunishda quyidagi usullardan foydalanadilar: so`zma-so`z o`qib tushunish, matndagi rasmlar

| | |
|-----|--|
| 200 | <p>ISSN 2690-9626 (online), Published by "Global Research Network LLC" under Volume: 3 Issue: 10 in Oct-2022 https://grnjournals.us/index.php/AJSHR</p> <p>Copyright (c) 2022 Author (s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY). To view a copy of this license, visit https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/</p> |
|-----|--|

yordamida, matndagi muhim ma`lumot/so`zlarni tagiga chizish yoki matn mavzusi va muhim ma`lumotlar, ikki tilli lug`atlar yordamida o`qib tushunish.

So`nggi yillar davomida mamlakatimiz ta`lim muassalarida ham chet til o`qitishda kommunikativ metodga asoslangan darsliklar asosida dars olib borish keng tus olmoqda. Lekin shu narsani ta`kidlash joizki, til o`rganuvchilar faqat o`quv darsliklarda berilgan matnlarni o`qish bilan cheklanib qolyapdilar, bu esa kerakli bilim olish uchun yetarli emas. Demakki, o`quvchilarimiz, talabalarimiz darsliklarda berilgandan tashqari qo`shimcha matnlar ustida mustaqil ishlashlari orqali ularning o`qib tushunish ko`nikmalari rivojlanadi, chet til bilan birga o`sha tilda gaplashadigan xalqning madaniyati bilan yaqindan tanishadilar, mustaqil fiklash, dunyoqarashlarni kengaytirish imkoniga ega bo`ladilar. Buni amalga oshirish uchun chet til darslarida biz pedagoglar o`z o`quvchilarimizga chet tildagi matnlar bilan ishlashni o`rgatmog`imiz zarur, deb o`ylayman. Shu bilan birga o`quvchilarimizni o`rganayotgan tillarida qo`shimcha matnlarni, adabiyotlarni o`qishlariga qiziqtira olishimiz ham chet til o`qitishning muhim omillaridan biri, deb hisoblayman. Uyda mustaqil tarzda chet tilda qo`shimcha adabiyotlarni qismlarga/boblarga bo`lib o`qish va darsda ular ustida ham ishlari ham samarali hisoblanadi.

Chet tilda o`qish uchun adabiyotlar/matnlar tanlash

Chet tilda o`qish uchun juda ko`plab materiallar, adabiyotlar mavjud. Ularni tanlab olish ham muhim ahamiyatga ega. O`qish uchun material tanlashda o`rganuvchiga va tanlanayotgan matnga bog`liq bo`lgan omillarga e`tibor berish zarur.

O`rganuvchiga bog`liq bo`lgan omillar

Matn tanlanayotganda o`rganuvchining **bilim darajasi, dunyoqarashi, yoshi** inobotga olinishi kerak. Shuningdek, biz pedagoglar **o`quvchilarimiz qiziqishlari doirasida matnlar** tanlay olsak, bu ularga yangi informatsiyalar bera olsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu bilan o`quvchilarimiz dunyoqrashi, chet tilidagi o`qib tushunish ko`nikmalari rivojlanadi.

Tanlangan material/matnga bog`liq omillar

Matnga bog`liq omillar bu - tanlangan materiallaning sifati va uning o`rganuvchi tomonidan tushunilishi. Tanlangan material murakkab bo`lishi emas, balki o`quvchini qiziqtira olishi kerak.

Bugungi kunda chet til darslarida matnlar ustida ishlash holati qanday? O`qituvchi matnni tarqatadi, o`quvchilar birin-ketin o`qishadi, yoki o`qituvchi o`zi ovoz chiqarib o`qib beradi, notanish so`zlarni o`qituvchi aytib beradi va x.k. Chet til darslarda matnlar ustida bu tartibda ishlash o`quvchini o`qishga qiziqtira olmaydi va shu bilan birga ularning kelgusida yana chet tilda matn o`qishlariga bo`lgan istaklarini so`ndirishi mumkin. Bu kabi salbiy holatlatlar oldini olish uchun biz pedagoglar o`quvchilarimizga matn o`qishning ular uchun mos va maqbul bo`lgan yo`llarini/strategiyalarini dars jarayonida o`rgatib borishimiz kerak. Bu orqali o`quvchilar matnni oson tushunib olish ko`nikmalariga ega bo`ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Chet Tillarni O`Rganish Tizimini Yanada Takomillashtirish Chora-Tadbirlari To`G`Risida" Prezident Qarori 2012 Yil 10 Dekabr
2. Ehlers Swantje. Lesen Als Verstehen. Kassel: Langenscheidts. 1992.,S.4.
3. Haeussermann, Ulrich/Piepho, Hans –Eberhard. Aufgabenhandbuch. Deutsch Als Fremdsprache. Abriss Einer Aufgaben- Und Uebungstypologie. Muenchen: Iudicium. 1996.
4. Wilms, Heinz. Deutsch Als Zweitsprache-Grenzen Des Sprachunterrichts In: Deutsch Lernen 9. (4) (1984)., S.21.

| | |
|------------|---|
| 201 | ISSN 2690-9626 (online), Published by "Global Research Network LLC" under Volume: 3 Issue: 10 in Oct-2022 https://grnjournals.us/index.php/AJSHR |
| | Copyright (c) 2022 Author (s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY).To view a copy of this license, visit https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/ |

5. Ziyodbek M. Abdullaev. (2022). The Name As An Indicator Of Cultural And Social Development. Oriental Journal Of Philology, 2(02), 15–19. <Https://Doi.Org/10.37547/Supsci-Ojp-02-02-03>
6. Abdullaev, Ziyodbek (2021) Usbekische Personennamen -Etymologie, Grammatik, Pragmatik. Phd, Universität Regensburg, Https://Epub.Uni-Regensburg.De/51175/1/Diss_Ziyodbek_Abdullaev_Final_09_12_2021.Pdf
7. Abdullaev Ziyodbek (2017). Personennamen Im Deutschen Und Usbekischen: Eine Kontrastive Untersuchung. *Ўзбекистонда Хорижий Тиллар Илмий Методик Электрон Журнал 1*, Https://Journal.Fledu.Uz/Wp-Content/Uploads/Sites/3/2019/04/Jurnal_2017-1ziyodbek-Abdullaev.Pdf
8. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). Personal Names Of Turkic Or Uzbek Origin. *International Journal Of Culture And Modernity*, Volume 18, 12-18., <Https://Ijcm.Academicjournal.Io/Index.Php/Ijcm/Article/View/391>
9. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). Personal Names Of Mongolian Origin. *Pedagogs Jurnali*, 12(1), 62–65. Retrieved From <Http://Www.Pedagoglar.Uz/Index.Php/Ped/Article/View/1460>
10. Iskandarova, S., & Abdullayev, Z. (2018). Formation Of Personal Names In Languages Of Different Systems. *Scientific Journal Of The Fergana State University*, 1(1), 58-60.
11. Ziyodbek, Abdullaev (2022). O'zbek Va Ingliz Tillarida Jinsning Ifodalanishi. *Editorial Board*, 613. (<Https://Dspace.Uzhnu.Edu.Ua/Jspui/Bitstream/Lib/41278/1/Modern-Problems-In-Science.Pdf#Page=614>)
12. Алимжонова, М. (2022). Таълимнинг Глобаллашуви Шароитида Талабалардо Маданиятлараро Мулоқот Компетентлигини Ривожлантириш Зарурати. *Science And Innovation*, 1(B3), 254-263.
13. Алимжонова, М. (2022). Глобаллашувнинг Маданиятлараро Мулоқотга Таъсири Ва Уни Тадқиқ Этишнинг Илмий Педагогик Асослари. *Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal*, 3(3), 323-328.